



Received: October 4, 2025
Accepted: December 23, 2025
Available online: December 25, 2025

Jamoliddin Yakubov

Filologiya fanlari doktori, professor
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Toshkent, O‘zbekiston

Jamaliddin Yakubov

Professor, Doctor of Sciences in Philology
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: yakubov1955@mail.ru
ORCID iD: 0000-0002-9917-999X

TURLI TIL TIZIMLARI DOIRASIDA TARJIMA MUAMMOLARI: FRANSUZ, O‘ZBEK VA RUS TILLARI MISOLIDA

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola tarjima san’atining nazariy va amaliy jihatlarini yoritishga bag’ishlangan bo‘lib, unda tarjimaning o‘ziga xos xususiyatlari, asosiy qoidalari hamda tarjima jarayonida yuzaga keladigan dolzarb muammolar keng qamrovda tahlil qilinadi. Tarjima insonlar o‘rtasidagi madaniy, ijtimoiy va ilmiy aloqalarni ta’minlovchi muhim kommunikativ vosita sifatida talqin etiladi. Maqolada tarjima qoidalariga alohida e’tibor qaratilib, ekvivalentlik, adekvatlik, mazmun va shakl uyg’unligi, funksional muvofiqlik kabi tamoyillar asosiy mezon sifatida ko‘rib chiqiladi. Shu bilan birga, tarjimonning kasbiy mahorati, bilim darajasi va madaniy salohiyati tarjima sifatiga bevosita ta’sir etuvchi muhim omillar sifatida ta’kidlanadi.

Tarjima muammolari qatorida leksik va grammatik nomutanosiblik, realiyalar va frazeologik birliklarning tarjimasini, milliy koloritni saqlash, ko‘p ma’nolilik hamda madaniy konnotativ ma’nolarni uzatish kabi masalalar atroflicha tahlil etiladi. Ayniqsa, badiiy va ilmiy matnlar tarjimasida ushbu muammolarning o‘ziga xos jihatlari ochib beriladi.

Ushbu maqolada tarjima san’atining to‘rtta asosiy vazifasiga e’tibor qaratilgan: (1) fransuz tilida tarjimaning o‘ziga xos jihatlarini aniqlash; (2) tarjima nazariyasining shakllanish tarixi va tarjima qilishning asosiy qoidalarini yoritib berish; (3) turli tillardagi lisoniy omillar va ularning tarjima jarayonidagi lingvomadaniy xususiyatlarini ochib berish; (4) tarjimani mazmunan aniq va stilistik jihatdan mutanosib tarzda amalga oshirish.

TRANSLATION PROBLEMS WITHIN DIFFERENT LANGUAGE SYSTEMS: THE CASE OF FRENCH, UZBEK, AND RUSSIAN

ABSTRACT

This article examines theoretical and practical aspects of translation, analyzing its features, principles, and challenges. Translation serves as a communicative instrument facilitating cultural, social, and scholarly interaction. Core principles of translation theory include equivalence, adequacy, harmony of content and form, and functional correspondence as evaluative criteria. The translator’s professional competence, expertise, and cultural awareness are emphasized as key factors influencing translation quality.

Among the major translation challenges examined in the article are lexical and grammatical mismatches, the translation of realia and phraseological units, the preservation of national coloring, polysemy, and the transmission of culturally connotative meanings. These issues are analyzed in detail, with special emphasis on their specific manifestations in the translation of literary and scientific texts.

The article focuses on four principal functions of the art of translation: (1) identifying the specific features of translation in the French language; (2) outlining the historical development of translation theory and the fundamental rules governing translation practice; (3) revealing linguistic factors across different languages and their linguocultural characteristics in the translation process; and (4) ensuring semantic precision and stylistic balance in translation.

Furthermore, six major types of translation problems—lexical-semantic, grammatical, syntactic, rhetorical, pragmatic, and cultural—

Shuningdek, tarjima jarayonida uchraydigan oltita asosiy muammo turi – leksik-semantik, grammatik, sintaktik, ritorik, pragmatik va madaniy muammolar batafsil tahlil qilingan. Maqolada tanlangan lisoniy omillar mavzuning mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Xususan, birinchidan, stilistik uslublar ishlab chiqilib tahlil qilinadi va bunda asosiy e'tibor frazeologik birliklarga qaratiladi; ayrim hollarda ularning boshqa tillarda to'liq muqobili mavjud emasligi asoslanadi. Ikkinchidan, tarjimaning sifatli amalga oshirilishida lisoniy olam manzarasining ta'siri aniqlanadi. Uchinchidan, tarjimon badiiy asarni tarjima qilishda o'sha xalqqa xos urfodatlar va realiyalarni chuqur bilishi zarurligi ko'rsatib beriladi. To'rtinchidan, tarjimada pragmatik muammolarning yechimlari tahlil qilinadi. Beshinchidan, grammatik muammolar aniqlanadi, oltinchidan esa lingvomadaniy muammolar keng yoritiladi.

Xulosa qilib aytganda, tarjima san'ati nafaqat tillaro vositachilikni amalga oshiruvchi jarayon, balki madaniyatlararo muloqotni ta'minlovchi murakkab va ko'p qirrali ijodiy faoliyat ekanligi asoslanadi.

Kalit so'zlar: tarjima san'ati, tarjima nazariyasi, ekvivalentlik va adekvatlik, lingvomadaniy omillar, realiyalar tarjimasi, frazeologik birliklar, pragmatik muammolar, grammatik va sintaktik muammolar, olamning lisoniy manzarasi, madaniyatlararo kommunikatsiya.

KIRISH

Turli tizimdagi tillar o'rtasida tarjima qilish masalasi tarjimashunoslikning asosiy tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Fransuz tili roman tillar guruhiga mansub bo'lib, analitik xususiyatga ega, o'zbek tili esa turkiy tillar qatorida agglyutinativ xususiyatga ega. Bu farqlar tarjimonning tillaro transformatsiya jarayonida qator lingvistik va madaniy muammolarga duch kelishiga sabab bo'ladi. Shu bois fransuz, o'zbek va rus tillari tarjimasi til tizimlarining o'ziga xos xususiyatlari nuqtayi nazaridan alohida o'rganishni talab etadi.

Ushbu maqolada fransuz, o'zbek va rus tillari asosida tarjima muammolari ilmiy tahlil qilinadi, o'xshash va farqli jihatlari ko'rsatiladi hamda misollar asosida izohlanadi.

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi bir qator omillar bilan izohlanadi. Birinchidan, stilistik uslublarni ishlab chiqish va ularni tahlil qilish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda asosiy e'tibor frazeologik birliklarga qaratiladi, chunki ayrim hollarda ularning boshqa tilda to'liq muqobil varianti mavjud bo'lmaydi. Ikkinchidan, tarjimaning sifatli va adekvat chiqishida lisoniy olam, ya'ni til orqali shakllangan

are examined. The analysis focuses on key linguistic factors, particularly stylistic patterns and phraseological units that lack full equivalents in other languages. The study also highlights the impact of linguistic worldviews on translation quality and emphasizes the need for translators, especially of literary texts, to possess in-depth knowledge of culture-specific customs and realia. Pragmatic, grammatical, and linguocultural issues are addressed in an integrated manner.

In conclusion, the article substantiates the view that the art of translation is not merely a process of interlingual mediation but a complex and multifaceted creative activity that ensures effective intercultural communication.

Key words: art of translation, translation theory, equivalence and adequacy, linguocultural factors, translation of realia, phraseological units, pragmatic problems, grammatical and syntactic problems, linguistic picture of the world, intercultural communication.

dunyo manzarasining ta'siri muhim omil hisoblanadi. Uchinchidan, tarjimon badiiy asarni tarjima qilish jarayonida mazkur xalqning urf-odatlarini, an'analarini va realiyalarini chuqur bilishi zarur. To'rtinchidan, tarjima jarayonida yuzaga keladigan pragmatik muammolar, beshinchidan, grammatik muammolar hamda oltinchidan, lingvomadaniy muammolar mazkur maqolada atroflicha va tizimli tarzda yoritib beriladi.

TADQIQOT METODLARI

Ushbu maqolaning maqsadi tarjimaning o'ziga xos to'rtta asosiy jihatini aniqlash hamda tarjima jarayonida uchraydigan leksik-semantik, grammatik, sintaktik, ritorik, pragmatik va madaniy muammolarni atroflicha tahlil qilishdan iborat. Shuningdek, tarjima muammolarining o'xshash va farqli jihatlari turli misollar asosida yoritilib, ularning nazariy va amaliy xususiyatlari ochib beriladi.

Mazkur maqolaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: 1) fransuz tilining muhim o'ziga xos jihatlariidan biri sifatida uning tarixan ikki asosiy dialektga – shimoliy (provansal) va janubiy dialektlarga ega ekanligini yoritish va ularning mazmuniy xususiyatlarini tahlil qilish; 2) fransuz tilida fe'l shakllarining rivojlangan tizimini, ya'ni zamon va nisbat shakllarining xilma-xilligini hisobga olgan holda ularning tarjimadagi ahamiyatini o'rganish; 3) fransuz tilida gapda so'z tartibining qat'iy ekanligini ko'rsatish hamda rus va o'zbek tillarida so'z tartibining nisbatan erkinligi fikr mazmuniga turli uslubiy tus berishini qiyosiy jihatdan tahlil qilish; 4) tarjima jarayonida tarjimon tomonidan matnning mazmuniy aniqligi va stilistik mutanosibligini ta'minlash masalasini asoslab berish.

Mazkur maqolada quyidagi usullar qo'llandi: qiyosiy-chog'ishtirma metod, qiyosiy tarixiy metod, distributiv, transformatsioniy metod, qiyosiy tahlil metodi, lingvomadaniy kabi metodlardan foydalanildi.

NATIJALAR

O'zbekistonda jahon xalqlari bilan turli sohalarda olib boriladigan keng ko'lamdagi xalqaro hamkorlikning rivojlanishida tarjimonlarning o'rni beqiyosdir.

Tarjimashunoslikning o'ziga xos nazariya sifatida san'at darajasida rivojlanishiga taniqli tilshunos va tarjimashunos olimlar V.Komissarov, A.Fyodorov, L.Barxudarov, Ya.Resker, G'.Salomov, Q.Musayev, O.Mo'minov, Yu.Nayda, J.Ketford va boshqalar katta hissa qo'shdi. Tarjima nazariyasi borasida XX asrda amalga oshirilgan ilmiy ishlarning, yaratilgan tarjima maktablarining mantiqiy davomi XXI asrda ham o'z samarasini ko'rsatmoqda.

Tarjima, bu – san'at demakdir, tarjimonning san'ati esa o'z tushunchasini boshqa tilga tarjima qilib uzatish. Tarjimon begona voqelikni to'g'ri anglashi, tushunishi, mulohaza qilishi, yozuvchining holatini ko'rishi, anglashi, his qilishi kabi holatlarni to'g'ri tarjima yordamida o'z kitobxoniga yetkazib berishi lozim.

Tarjimani o'rganish ikki yoki uch til materiallarini qiyosiy tahlil qilishni (M.Abdurazzoqov (1972); M.Djusupov (2013); Ye.Polivanov (1933); Dj.Buranov (1983); U.Yusupov (2007); G.Raximov (2017); K.Saparova (2006)) nazarda tutadi. Bu, o'z navbatida, tillarning o'xshash va farqli jihatlari aniqlash, shuningdek, til

nazariyasi va til materiali (A.Shukin (2006); M.Djusupov (2012))ni o'qitish maqsadlariga mos ravishda lingvodidaktik tavsiflash imkonini beradi. Tarjima jarayonida original matnda ifodalangan ma'no, semantik-stilistik ustuvorlik va tarkibiy-hissiy mohiyat saqlanishi lozim. Bu esa original va tarjima matnlarining mazmuniy identikligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Tarjima, bu – tillararo vositachilikning bir turi bo'lib, unda xorijiy tildagi original matn mazmuni boshqa tilda kommunikativ jihatdan teng qiymatga ega bo'lgan matn yaratish yo'li bilan ifodalanadi [Komissarov, 1990; 248]

Tarjima turli xalqlar o'rtasida fikr almashuvni ta'minlashda muhim o'rin tutadi va jahon madaniyatining tarqalishiga xizmat qiladi. "Tarjima" atamasi ko'p ma'noli hisoblanadi: bir tomondan, u bir tildagi matn mazmunini boshqa til vositalari orqali ifoda etish faoliyatini anglatadi, ikkinchi tomondan, shu faoliyatning o'ziga xos natijalarini ham bildirish uchun qo'llaniladi [Baranov, 2003; 138]

A.Shiryayev ta'kidlaganidek, tarjimonlik faoliyatining asosiy maqsadi "belgilangan ijtimoiy buyurtma asosida nutqiy bayonotlar yaratish"dan iboratdir. Tarjimonlik faoliyati mahsuli muayyan barqaror va ijtimoiy xarakterga ega talablar asosida shakllanadi. Demak, tarjima umumiy tilga ega bo'lmagan yoki lingvoetnik to'siq bilan ajralgan kishi va jamoalar o'rtasidagi doimiy muloqot ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi [Latishev, 2005; 6].

O'zbekistonda tarjima san'atini rivojlantirishda G'aybulloh As-Salomning fi-dokorona mehnati e'tiborga molikdir. G'.Salomov tarjima san'ati haqidagi fikrlarini quyidagicha ifodalaydi: "Tarjima orqali xalqlar bir-birlari bilan muomala qilganlar, olimlar bir-birlari bilan fikrlashganlar, adiblar bir-birlari bilan muloqotda bo'lganlar. Hamma zamonlarda – xoh adabiy, xoh ilmiy, xoh siyosiy kitoblar tarjimasi bo'lsin – xalq, u yaratgan yoki yaratayotgan madaniyat, fan, adabiyot va san'at bundan faqat naf ko'rgan" [Salomov, 1983; 18].

Tarjima – ilm va san'at. U ilm bo'lganda ham, asrlar davomida ne-ne mutafakkirlar, turli soha vakillari, yozuvchi va shoirlar xayolini band etib kelayotgan murakkab ilm, san'at bo'lganda ham, san'atlar shohi. O'ziga xos ahamiyati va siru-sinoatlarga boyligi jihatidan unga teng keladigan san'at yo'q [Safarov, 2024; 3].

Hozirgi davrda XXI asrning zamonaviy tarjimashunosligiga juda ko'plab o'zbek tarjimonlari va lingvistlari o'z hissalarini qo'shmoqda. Bular: Xurshid Davron, Muhammad Ali, Ibrohim G'afurov, Qudratxon Musayev, Najmiddin Komilov, Ibrohim G'afurov, Shahriyor Safarov, Ibaydullo Mirzayev, Muhammadjon Xolbekov, Omon Mo'minov, Begoyim Xolbekova, Shuhrat Sirojiddinov va G'anisher Raximovni aytib o'tish lozim.

Har bir til o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, tarjima jarayonida ushbu xususiyatlarni inobatga olmaslikning iloji yo'q. Fransuz tilining ilk o'ziga xos jihatlaridan biri – bu tilda uning ikki mustaqil dialektga ega ekanidir: shimoliy (provansal) va janubiy dialektlar. Ular bir-biridan yetarlicha farq qilib, bu dialektlarda so'zlashuvchilar bir-birlarini tushuna olishadi. Ma'lum vaqt davomida bu dialektlar maqom va tarqalish jihatidan deyarli teng bo'lgan, ammo hozirgi kunda yetakchi mavqe asosan shimoliy dialektga tegishlidir. Fransuz tili rasmiy til sifatida qo'llaniladigan taxminan

o'ttizga yaqin mamlakatda aynan shu variant asosiy til sifatida xizmat qiladi: ish yuritish hujjatlari, gazeta va kitoblar ham shu dialektida yoziladi. Biroq bu holat tarjimon janubiy dialektga xos birikmalar va ifodalarga duch kelmaydi, degani emas. Ayniqsa Fransiyaning janubiy hududlarida bu xususiyatlar nutqda juda ko'p uchraydi.

Fransuz tilining ikkinchi muhim jihati – fe'l shakllarining rivojlangan tizimi hisoblanadi. U turli zamon va munosabat (nisbat) shakllarini o'z ichiga oladi. Masalan, kelajakda sodir bo'ladigan voqealarni ifoda etishda fransuz tilida bir nechta turli zamon shakllaridan foydalanish mumkin. Fe'l mayllarining ham murakkab tizimi mavjud: fransuz tilida ular to'rtta bo'lib, bu holat rus yoki ingliz tillaridagi uchta mayl tizimidan farq qiladi.

Fransuz tilining uchinchi muhim jihati – gapdagi so'z tartibining qat'iyligi. Rus va o'zbek tillarida so'z tartibi nisbatan erkin bo'lib, uning o'zgarishi fikr mazmuniga turlicha uslubiy tus berishi mumkin. Fransuz tilida esa bunday uslubiy effektini boshqa grammatik vositalar (masalan, aniq va noaniq artikllar) yordamida yaratishga to'g'ri keladi.

Tarjimon oldida turgan asosiy to'rtinchi vazifasi tarjimani mazmunan aniq va stilistik jihatdan mutanosib ravishda amalga oshirishdir. Ayonki, badiiy matn tarjimasida qo'llaniladigan til vositalari ilmiy maqolani tarjima qilishdagi vositalardan farq qiladi. Fransuz adabiy asarlariga xos hissiy va ekspressiv yukni o'zbek tilida qayta yaratish tarjimondan maxsus badiiy-ifodaviy vositalarni puxta tanlashni talab etadi.

Tarjimon o'z vazifalarini ongli va to'g'ri bajara olishi uchun, avvalo, o'z faoliyatining maqsadini hamda uni amalga oshirish yo'llarini aniq tasavvur qilishi zarur. Bunday tushuncha umumiy, maxsus va xususiy tarjimashunoslik nazariyasi asoslari bilan chuqur tanishishni, tarjimon ishlayotgan sohalar va tillar kombinatsiyasini yaxshi bilishni talab qiladi. Bu, shuningdek, tillar o'rtasidagi muvofiqliklar tizimini, tarjima usul va metodlarini bilishni, zarur holatda munosib muvofiqlikni tanlab, muayyan kontekst sharoitida eng samarali tarjima usulini qo'llay olishni, tarjima jarayoniga ta'sir etuvchi pragmatik omillarni hisobga olishni nazarda tutadi [Komissarov, 1990; 278]

Yuqoridagi vazifalarni bajarish uchun bizda tajriba ham, shart-sharoit ham yetarli, deb o'ylaymiz.

MUNOZARA

Tarjima inson faoliyatining eng qadimiy turlaridan biri bo'lib, u tufayli biz jamiyat taraqqiyoti tarixining barcha tafsilotlarini ochiq-oydin tasavvur etamiz. Tarjima tufayli milliy adabiyotlarga yangi g'oyaviy yo'nalish, yangicha syujet, janr, yangi obraz va badiiy tasvir vositalari kirib keladi. Shu ma'noda, tarjimani asliyatni qayta yaratish, talqin etish san'ati deb ta'riflash mumkin.

Bizning nazarimizda, tarjima, bu – bir tildagi axborotni boshqa tilda bayon etish demakdir. Tarjima va asliyat matnlarda aniqlangan milliy madaniyatlarning o'xshashligi va farqlarini tadqiq qilish asos hisoblanadi.

Fransuz tilida tarjima nazariyasining ham o'ziga xos tarixiy rivojlanish bosqichlari bor. Fransuz tili tarixi va adabiyoti tarjima haqida ko'plab tarixiy an'anaviy

boylikka ega. Jumladan, Ye.G. Etkind o'zining "Buyuk fransuz tarjimonlari" maqolasida "Fransiyada tarjima tarixi" fojia bilan boshlandi deb yozgan edi. Ushbu maqolaning birinchi qatori fransuz Uyg'onish davrining insonparvari, tarjimoni, yozuvchi va bosmaxona matbaachi Eten Dolega bag'ishlangan.

Ta'kidlash lozimki, shaxsan Eten Dolening fransuz tiliga qo'shgan xizmati shundaki, u tufayli ilk bor fransuz tiliga *traducteur* (tarjimon) va *traduction* (tarjima) so'zlari kirib kelgan. Eng muhimi E.Dole asarining tarixiy xizmati shundaki, mazkur asar "Bir tildan ikkinchi tilga yaxshi tarjima qilishning o'ziga xos xususiyati" ("La maniere de bien traduire d'une langue en autre") 1540-yili birinchi marta chop etildi.

E.Dolening mazkur ilmiy ishi tarjima nazariyasining preskriptiv yo'nalishidagi bosh manba bo'lib xizmat qilgan. Muallif o'z asarida to'laqonli yaxshi tarjima qilishning beshta qoidasini taklif qiladi:

1) tarjimon eng avvalo muallifning predmet haqidagi fikrini va bu obyekt haqidagi uning hukmini yaxshi tushunmog'i lozim;

2) tarjimondan til asliyatini yaxshi bilish va uni yuksak darajada tarjima qilish talab qilinadi;

3) tarjimon matnning asl nusxasini so'zma-so'z tarjima qilmasligini inobatga olmog'i lozim;

4) tarjimondan tarjima normalarini yaxshi bilgan holda umumiy qo'llaniladigan lisoniy shakllar bilan cheklanishi talab etiladi, ammo yangi leksik iboralarni hech qanday o'ylamasdan o'zicha ixtiro qilib, tarjimaga kiritishi mumkin emas;

5) tarjimondan nutq normalariga rioya qilish talab etiladi, ayniqsa, "gaplarni bir-biriga bog'lash va birlashtirish qoidalariga noziklik bilan shunday yondashish kerakki, unda inson qalbi faqatgina qanoatlanib qolmasdan, balki uning quloqlari eshitib rohatlanishi kerak, chunki odatdagi nutqda bunday uyg'unlik mavjud emas" [La maniere de bien traduire d'une langue en autre, 1540].

Tarjimonning maqsadi – axborotni uzatish degani, bu bir tilni ikkinchi tilga almashtirish emas, balki asosiy matn mazmunidan kelib chiqib, saralangan maxsus til vositalari orqali tarjima mohiyatiga mos keladigan muqobil tarjimani berishdir.

Hozirgi zamon lingvistikasida "tarjima" terminiga jarayon va natija deb ta'rif berilgan.

T.V. Jerebiloning lingvistik terminlar lug'atida "tarjima" terminiga quyidagicha ta'rif berilgan:

1) matn mazmunidagi axborotni lisoniy vositalar bilan boshqa tilga uzatish;

2) ikki yoki undan ortiq tillar qiyoslanishining maqsadi ular orasidagi semantik xususiyatlarning mos kelishini izlab topish;

3) matn mazmunidagi axborotning g'oyasini to'la ochib berish uchun boshqa tildagi vositalarni izlab topish, shuningdek mazmun va shakl nuqtayi nazaridan matnning asl nusxasidagi mazmun-mohiyati to'la ochib berilishining tarjimaga mos kelishi;

4) sotsiolingvistik nuqtayi nazardan tarjimon tarjima jarayonida chiroyli talaffuzga va ekstralingvistik xarakterdagi ma'lumotga ham ega bo'lishi lozim [Словарь лингвистических терминов, 2010].

A.D. Shveyserning fikricha, “tarjima” bir yo‘nalishdagi ikki jarayonni qamrab oluvchi muloqatning tillararo va madaniy fazaviy jarayondir. Tarjima jarayoni – o‘ta qiyin, ko‘p aspektli, tarjimondan nafaqat lingvistik, ammo ekstralingvistik, lingvomadaniy bilimlarni ham talab qiladi. Tarjima obyekti o‘ta murakkab jarayondir.

Tarjima masalalarida olti xil muammo mavjud: leksik-semantik, grammatik, sintaktik, ritorik, pragmatik va madaniy (lokalizatsiya – xududiy).

1. Tarjimada leksik-semantik muammolar.

Fransuz tilidan boshqa tillarga tarjima qilishda o‘ziga xos muammolar mavjud. Leksik-semantik muammolar lug‘atlar, izohli lug‘atlar, turli sohalar bo‘yicha, jumladan, bank sohasiga doir terminlar maxsus ekspertlar bilan maslahatlashish orqali hal qilinishi mumkin bo‘lgan muammolardir. Ushbu holatda matnlarda terminlarning o‘zaro almashishi xususiyatidan kelib chiqib, neologizmlar, semantik lakunalar, sinonim va antonimlar leksik sathida ikki yoki undan ortiq semantik ma’nolarni ifodalashiga e’tiborni qaratish lozim.

Semantika, bu – til yoki uning muayyan birligi (so‘z, grammatik forma, so‘z birikmasi, gap) orqali uzatiluvchi butun mazmun va axborotdir [Маслова, 2001; 153]. Semantik farqlar bilan bog‘liq quyidagi tarjima muammolarini ajratish mumkin: kategorizatsiyadagi farqlar, grammatik farqlar, grammatik farqlarning metaforizatsiya omili sifatida namoyon bo‘lishi, yashirin kategoriyalar, “tarjimonning yolg‘on do‘stlari”.

Kategorizatsiyadagi farqlar masalasi nazariy jihatdan yevropalik neogumboldtianizm vakillari (L.Vaysgerber va boshqalar), shuningdek, lingvistik nisbiylik nazariyasini ilgari surgan amerikalik olimlar (E.Sapir, B.Uorf) hamda ularning izdoshlari tomonidan hal qilingan. Ular har bir tilda aks etgan “lisoniy olam manzarasi”ning o‘ziga xos va takrorlanmas xususiyatga ega ekanligi haqidagi g‘oyani ilgari surishgan.

Tarjimonning vazifasi o‘quvchiga muallif maqsadini aniq yetkazish bilan birga faqatgina eksplitsit axborotni emas, balki implitsit ma’lumotni ham to‘g‘ri uzatish lozim. Albatta, bu tarjimon uchun o‘ta murakkab vazifa, tarjimon doim ham yaxshi tarjima qila olmasligi mumkin, chunki turli xil tillarning dunyoviy manzarasi va mentaliteti mos kelmaydi.

Ingliz va o‘zbek tillaridagi leksik muvofiqlik turlari: 1. To‘liq leksik muvofiqlik. 2. Qisman leksik muvofiqlik. 3. Umuman mos kelmaslik. 4. To‘liq leksik muvofiqlik.

Masalan, so‘zlarning polisemantik xususiyati: **house** (uy, boshpana, parlament va h.k.), **head** (bosh, kalla, rahbar, boshliq va h.k.), **serviette** (salfetka, sochiq, portfel; papka), “*libre*” so‘zi “erkin, ozod” yoki kontekstdan kelib chiqib, “bepul” ma’nolarni anglatadi, “*tour*” – navbat, minora, aylanma, aylanib o‘tish kabi.

Biz fransuz tilidan rus tiliga tarjima qilishda ikki til yo‘nalishida tez-tez qiyinchiliklarga duch kelamiz.

Masalan, rus tilidagi *лиса, лошад, собака, ворона, кошка* (tulki, ot, it, qarg‘a, mushuk) so‘zlari ayol jinsiga qarashli bo‘lsa, fransuz tilida esa ular: **renard(m)**, **cheval (m)**, **chien (m)**, **corbeau (m)**, **chat (m)** erkak jinsiga mos keladi. Demak, fransuz va rus tillaridagi jins kategoriyasi doim ham bir-biriga mos kelavermaydi. Tarjimon badiiy asarni tarjima qilishda o‘sha xalqqa xos qiziq, g‘ayriodatiy urf-odat va reali-

yalarini yaxshi bilmog‘i kerak.

2. Tarjimada grammatik muammolar

Grammatik muammolar, masalan, temporallik, tus (aspekt) kategoriyasi (tus kategoriyasini ifodalashda zamonga nisbatan ish-harakatning davomiylig jarayoni yoki holatni ifodalashda fe‘l va kishilik olmoshining qo‘llanishi, olmosh bilan fe‘l birgalikda ifodalanganda, turli semantik harakatni, jumladan, harakatning rivojlanishi jarayoni yoki holatni ko‘rsatishga hizmat qilishini inobatga olish lozim.

Masalan, ingliz, fransuz va o‘zbek tillarida so‘z tartibi: **I go to school – Je vais à l’école – Men maktabga boryapman. - S-P, - o‘zb. SOP.**

Fransuz tilidagi **tout** olmoshini tahlil qiladigan bo‘lsak, ushbu olmosh o‘ziga xos semantik xususiyatga ega: birinchidan, ushbu olmoshning mazmunini ochib berish ot oldidan yoki otdan so‘ng artikl bilan yoki artiklsiz kelishiga bog‘liq, ikkinchidan, **tout** olmoshining aniq yoki noaniq artikl bilan kelishini nazarda tutmog‘ lozim.

Fransuz tilidan rus tiliga tarjima qilish jarayonida tarjimon **tout** olmoshining ko‘p ma‘noni anglatishini bilmog‘i kerak, jumladan, **tout** olmoshi rus tilida “*весь*”, “*целый*” yoki “*каждый*” ma‘nolarini anglatib keladi. Agar olmosh ot oldida aniq artikl bilan qo‘llansa, **tout** olmoshi fransuz tilidan rus tiliga “*весь*” deb tarjima qilinadi. Masalan:

- ☐ *Il veut savoir toute la vérité – Он хочет знать всю правду.*
- ☐ *J’y ai pensé toute la soirée – Я думал об этом весь вечер.*

Agar olmosh ot oldida noaniq artikl bilan qo‘llansa, bu holda **tout** olmoshi fransuz tilidan rus tiliga “*целый*” sifati yordamida tarjima qilinadi:

C’est tout un problème – Это целая проблема.

Ce n’est plus un village, c’est toute une cité – Это больше не деревня, это целый город.

Bordi-yu **tout** olmoshi ot oldida artiklsiz qo‘llansa, unda mazkur olmosh fransuz tilidan rus tiliga “*всякий, каждый, любой*” so‘zlari orqali tarjima qilinadi.

☐ Quyidagi misollarni tahlil qiladigan bo‘lsak, **tout** olmoshi o‘ziga xos semantik ma‘nolarni ifoda etadi:

☐ **Tout** enfant a droit à l’instruction – Каждый ребёнок имеет право на образование.

☐ Contre toute espérance il a réussi ce rôle – Вопреки всякому ожиданию эта роль ему удалась.

Ta’kidlash lozimki, fransuz tilida yordamchi so‘zlar katta rol o‘ynaydi. Yuqoridagi misollardan ko‘rinib turibdiki, artikllar otlar oldida kelganda matnning mazmunini sezilarli darajada o‘zgartirib yuboradi. Jumladan, quyidagi uchta gapning qiyosiy tahlilida bu holatning guvohi bo‘lamiz.

- ☐ *Je mange le chocolat – Я ем шоколад.*
- ☐ *Je veux du chocolat – Я хочу шоколада.*
- ☐ *J’ai mangé le chocolat – Я съел целую шоколадку.*

Aytish lozimki, fransuz tilida artikl mavhum tushunchani aniq predmetga aylantirib yuborish xususiyatiga ega. Masalan:

l’attention – внимание – diqqat;

une attention – знак внимания, подарок – e'tibor belgisi; sovg'a;
la beauté – красота – go'zallik, une beauté; красotka – go'zal – sohibjamol qiz.

Tarjimada sintaktik muammolar

Sintaktik muammolar sintaktik parallelizmlar, sintaktik munosabatlar (boshqaruv, bitishuv), fe'llarning aktivlik va majhullik nisbati, gap yoki ish-harakatni ifodalovchi hikoyalarda voqelikning amalga oshish jarayonini shakllantirish, ritorik figuralar shakllanishining tarkibiy qismi, gap va nutqlarda so'z tartibining o'zgarish holati, shuningdek so'zlarning anaforik xususiyatini gapning boshida, she'rlarda va frazalarda kelishini inobatga olish kuzatiladi.

Fransuz tilida gaplar uzun va murakkab shakllarda berilsa, o'zbek tilida esa qisqa va aniq sodda gaplar yordamida ifodalanadi. Masalan: Fransuz tilida: Dans un coin sombre de la pièce, elle attendait, les mains tremblantes, que quelque chose arrive enfin. O'zbek tilida: Xonaning qorong'i burchagida u kutib turardi. Qo'llari ti-trardi. Nihoyat biror narsa sodir bo'lishini kutardi.

White flag- oq bayroq, He laughed – U kuldi.

House-plan – uy plani-plan doma.

Tarjimada ritorik muammolar

Ritorik muammolar bevosita o'xshatish bilan bog'liq. Ish-harakatni mantiqiy fikrlash, stilistik vositalar (qiyoslash, metafora, metonimiya, sinekdoxa, oksimoron, paradoks va boshqalar) va diksiya (chiroyli talaffuz yordamida so'z va gaplarni aniq-ravshan aytish) orqali ifodalash bilan bog'liq.

Il est têtue comme un âne – U eshakdek o'jar – Он упрямый как осёл.

Rus kishisi farzand ko'rmagan odamga: он был бездетен – u befarzand edi – eng muqobil variant – u tirnoqqa zor edi - jarangliroq chiqadi.

Tarjimada emotsionallik, stilistik va madaniy bo'yoqdorlik. Le vent se lève, il faut tenter de vivre. Shamol esmoqda – yashashga intilmoq lozim. Il avait le cœur serré en pensant à sa mère restée au village. O'zbek tilida: Onasi qishloqda qolib ketganini o'ylab, yuragi siqildi.

Badiiy matn tarjimasini yuqori saviyada amalga oshishida tarjimon quyidagi til omillariga e'tiborni qaratish kerak, deb o'ylaymiz.

Tarjima tarixiy o'tmish dunyosi bilan bog'liq bo'lsa, tarjimon darhol arxiv hujjatlar bilan tanishib chiqishi zarur, shuningdek o'sha davr hamma realiyalarini bilishi va ularning badiiy asarlardagi tarjimasini kitobxonlar ongiga qanday yetkazib berish masalasini o'ylashi kerak.

Birinchidan, stilistik uslublarni ishlab chiqish va tahlil qilish lozim. Bu o'rinda asosiy e'tibor frazeologizmlarga qaratiladi, ba'zan ularning boshqa tilda muqobil varianti bo'lmaydi: jumladan, fransuz tilidagi frazeologizm “avoir un rat dans la tete” ni so'zma-so'z “uning boshida kalamush bor” deb tarjima qilinsa, juda kulgili bo'ladi, aslida u “xomkalla, esi past” degan ma'noni anglatadi, ushbu frazeologik birikma esa rus tili variantida “без царя в голове” deb tarjima qilinadi.

Fransuz tili	So'zma -so'z tarjima	To'g'ri tajima
Il pleut des cordes	Идёт дождь из веревок	Лёт как из ведра

Elle a le cœur sur la main	У неё сердце на ладони	Она очень щедрая
C'est la fin des haricots	Это конец фасоли	Всё пропало / конец всему

Ikkinchidan, tarjimaning sifatli chiqishida lisoniy olam (dunyo manzarasi)ning ta'siri bo'ladi. Masalan, agar o'zbeklar yoki ruslar aksa ursa "Sog' bo'ling! – Будьте здоровы!" deyiladi. Fransuzlar esa bu holatni boshqacha ifodalaydi: "A vos souhaits!" – "Пусть сбудутся ваши желания! – *Sizning istaklaringiz amalga oshsin*", «A vos amours!» – «Пусть у вас будет удача в любви! – *Muhabbatda omadingiz kelsin!*».

Uchinchidan, tarjimon badiiy asarni tarjima qilishda o'sha xalqqa xos qiziq, g'ayriodatiy urf-odat va realiyalarini ham yaxshi bilmog'i kerak. Muayyan bir xalq va millatga xos turmush tushunchalarini anglatadigan so'zlar – realiyalar deyiladi. Masalan, ispan tili adabiyotini tarjima qilishda pancho (yoping'ich), machete (cholg'i-o'roq), sombrero (shlyapa), flamenko (bayram), jazoir adabiyotini tarjima qilishda arab xalq hayotining realiyalarini: kuskus (taom), tamtam, suq (bozor) kabilarni tarjimon yaxshi bilishi kerak.

Fransuz tarjimoni uchun esa rus va o'zbek realiyalarini: samovar, starosta, choyxona, mahalla, mahalla raisi, sunnat, beshik to'yi kabilarni tarjima qilish ancha qiyinchilik tug'diradi.

Yuqoridagi aytilgan lisoniy omillar tarjima sifatiga ta'sir qiladi, matn tarjimasini sifatli amalga oshirishda tarjimon leksik va sintaktik transformatsiyalarga murojaat qilishga majbur bo'ladi.

Tarjimada pragmatik muammolar: Kishilik olmoshlarning faol qo'llanish tarjimasida misolida.

Pragmatika, bu – odamlarning til birliklariga bo'lgan subyektiv munosabatidir. L.S. Barxudarov tarjimaning pragmatik ma'nolarini o'rganishda har bir so'zning leksik-semantik ma'nosini 3 tipga bo'lib o'rganishni tavsiya qiladi: 1) so'zning stilistik xarakteristikasi; 2) so'zning registri; 3) so'zning emotsional bo'yog'i.

Masalan, bitta jumlada ikki-uch xil pragmatik emotsional bo'yoq uchrashi mumkin: Please come in (rasmiy); Come in (neytral); Come in will you (maishiy, salbiy bo'yoqli); Get the hell in here (familyar, salbiy emotsional).

Pragmatik masalalar "sen" va "siz" olmoshlari bilan uzviy bog'liqdir. Jumladan, ushbu olmoshlar yordamida idiomatik frazalar, iboralar, dikton (maqol-matal va hikmatli so'zlar)lar, ironiya (kinoya, piching), hazil va jargonlar qo'llanishida uchraydi. Ammo bu qiyinchiliklar boshqa qiyinchiliklarni ham o'z ichiga olishi mumkin, masalan, inglizcha-fransuzcha matn tarjimasida kishilik olmoshi "siz"ning qo'llanilishiga e'tibor qarataylik. Bu holatda tarjimon "sen" va "siz" olmoshlaridan qaysi biri matn mazmuniga mos kelishini va ularni to'g'ri qo'llashni o'ylab ko'rishga to'g'ri keladi. Agar "siz" olmoshini qo'llansa, unda ma'no o'zgarib, xushmuomalik kategoriyasiga aylanib ketishi mumkin. Bu holat esa doim ham tarjimaga mos kelavermaydi.

Tarjimada lingvomadaniy muammolar

Madaniy muammolar turli tillarda madaniyatning turlicha nomlanishi va ular

o'sha xalq madaniyatini aks ettirishi bilan bog'liq. Jumladan, har xil millatda taomlarning nomlanishi har xil, bayramlar va madaniyatni anglatuvchi urf-odatlarini ko'rsatish mumkin. Tarjimon esa har ikki til sohiblari madaniyatini chuqur bilishi va anglashi lozim. Frazеologik birikma misolida milliy kolorit yoki bir millatga xos bo'lgan tasvir tarjimasi:

Nemis tilida – Wenn die Hunde mit dem Schwanz bellen (qachonki, itlar dumlari bilan akkillasalar) iborasi qo'llansa, inglizlarda – when the moon turns green cheese (qachonki, oy yashil pishloqqa aylansa) iborasi anolog sifatida tanlansa, fransuz tilida – Quand les poules auront des dents (qachonki tovuqlarning tishlari bo'lsa), rus tilida – Когда рак свистнет на горе и рыба запоет (qachon tog'da qisqichbaqa hush-tak chalsa va baliq kuylasa) tarzida tarjima qilinsa, o'zbek tilida – “tuyaning dumi erga tekkanda” iborasini tanlash mumkin.

Turli tizimli tillar tarjimasida har xil *lisoniy olam manzarasini* ko'rishimiz mumkin. Masalan, rus tilida – mustahkamlangan sutkaning standart qismlarga bo'linishi nemis va ingliz tillaridagi sutka davrini bo'lish tartibidan farq qiladi (bu tillarda “sutka” tushunchasini anglatadigan alohida so'z mavjud emas). Agar rus tilida sutka to'rt qismga – **ertalab**, **kunduz**, **kechqurun**, **tun** – ajratilsa, masalan, nemis tilida olti vaqt bo'linishi mavjud: **Morgen** – “ertalab”, **Vormittag** – “tushdan oldingi vaqt”, **Mittag** – “peshin”, **Nachmittag** – “peshindan keyingi vaqt”, **Abend** – “kechqurun”, **Nacht** – “tun”. Shuning uchun rus tilidagi “Встретимся сегодня вечером” jumlasini nemis tiliga “**Wir treffen uns heute nachmittag**” – “Bugun peshindan keyin uchrashamiz” tarzida ham, “**Wir treffen uns heute abend**” – “Bugun kechqurun uchrashamiz” shaklida ham tarjima qilish mumkin. Demak, to'g'ri tarjimani tanlash uchun faqat kontekstga murojaat qilish orqali mumkin bo'ladi [Baranov, 2003; 147].

Tarjima jarayonida diniy e'tiqodlarni o'rganish, xalqning hayoti, turmush tarzi, moddiy va ma'naviy madaniyati bilan tanishish zarurati ham seziladi.

Jumladan, bunga misol qilib fransuz tiliga tarjima qilingan oddiy gapni keltirish mumkin: “Bir jazoir qishlog'ida Laid el Kebir bayramiga qo'y so'yishgan”. Ba'zi talabalar ushbu gapni quyidagicha tarjima qilishgan: “«*On a tué un mouton pour feter Laid el Kebir dans un village algérien*”.

Bir qaraganda, ushbu gapning tarjimasi to'g'riga o'xshaydi. Ammo talabalar o'sha joydagi musulman urf-odati bo'yicha qo'yning tomog'idan so'yishini hisobga olmaganlar. Bu o'rinda tarjima uchun “zabit – urib o'ldirmoq” (abattre), “убить- o'ldirmoq” (tuer), «заколоть – sanchib o'ldirmoq» (poignarder) fe'llari mos kelmaydi. Birdan- bir to'g'ri deb quyidagi tarjima variantlarini hisoblash mumkin:

“*On a égorgé un mouton pour feter Laid el Kebir dans un village algérien*»; ёки «*Dans un village algérien on a égorgé un mouton pour feter Laid el Kebir*”.

Yuqoridagi aytilgan lisoniy omillar tarjima sifatiga ta'sir qiladi, matn tarjimasini sifatli amalga oshirishda tarjimon leksik va sintaktik transformatsiyalarga murojaat qilishga majbur bo'ladi.

XULOSA

Tarjima va uning turlarini o'rganish nazariy hamda amaliy jihatdan katta aha-

miyatga ega. Bir tildan ikkinchi tilga tarjima orqali tillar va madaniyatlar o'rtasidagi kommunikatsiya amalga oshadi, bu esa zamonaviy dunyoda ilm-fan, ta'lim va tarbiyaviy jarayonlar uchun muhim o'rin tutadi. Tarjima xalqlarni, ularning til va madaniyatlarini yaqinlashtirib, umuminsoniy hamda muayyan milliy-madaniy xususiyatlar, an'analar shakllanishi va takomillashuviga xizmat qiladi. Shuning o'ziyoq yosh avlodni tarjimonlik faoliyatiga o'rgatish, ularni ikki yoki undan ortiq til va madaniy qadriyatlarni yuqori darajada o'zlashtirgan bilingval va polilingval mutaxassis sifatida tayyorlash zarurligini isbotlaydi.

Tarjima jarayoni individ ikkinchi tilning ham statik, ham dinamik xususiyatlarini egallagan holda amalga oshiriladi. Shunday qilib, tarjimonlik faoliyati o'zining barcha ko'rinishlarida nutqiy faoliyatning alohida bir turi bo'lib, uning natijalari tarjimonning ikki til statik va dinamik tizimini puxta bilishi asosida tillar, madaniyatlar va xalqlarni yaqinlashtiradi.

Misollar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, tarjima jarayonidagi asosiy kamchilik va xatolarning sabablari shundaki, ikki xalq tili, ular hayotidagi mentalitetning bir-biridan farq qilishi, turli xalq lisoniy manzarasining bir-biriga mos kelmasligi, tarjima jarayonida turli xil kasblar, nutqdagi shevalar, diniy e'tiqodlar, jargon va argolarning har xil nomlanishini hisobga olmaslik, tarjima sifatining pasayishiga olib keladi. Tarjimon birinchi navbatda, asl nusxani to'la-to'kis idrok etishi, so'ngra uni o'z tilida bekam-u ko'st qayta ifodalashi darkor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov, I. (2008). *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch*. Toshkent: "Ma'naviyat", 138–139-betlar.
2. Abdurazzaqov, M. (1972). *Ocherki po sopostavitel'nomu izucheniyu raznosistemnykh yazykov*. Tashkent: Nauka.
3. Buranov, Dzh. (1983). *Sravnitel'naya tipologiya angliyskogo i tyurkskikh yazykov*. Moscow: Vysshaya shkola.
4. Baranov, A. N. (2003). *Vvedenie v prikladnuyu lingvistiku*. Moscow: Editorial URSS.
5. Gak, V. G. (1989). *Sravnitel'naya tipologiya frantsuzskogo i russkogo yazykov*. Moscow: Prosveshchenie.
6. Dzhusupov, M. (2013). *Spetsial'naya leksika i poslovitsy (lingvokontrastivnye i metodicheskie aspekty)*. Tashkent: MERIYUS.
7. Dzhusupov, M. (2012). Sotsiolingvistika, lingvodidaktika, metodika (vzaimosvyaz' i vzaimoobuslovlennost'). *Russkiy yazyk za rubezhom*, 1, 22–28.
8. Dzhusupov, N. (2016). Teoriya vydvizheniya v lingvisticheskikh issledovaniyakh: istoki, tendentsii, voprosy interpretatsii. *Vestnik RUDN. Seriya: Teoriya yazyka. Semiotika. Semantika*, 2, 41–50.
9. Cary, E. (1966). O perevode i perevodchikakh vo Frantsii. In *Masterstvo perevoda* (p. 449). Moscow.
10. Komissarov, V. N. (1990). *Teoriya perevoda (lingvisticheskie aspekty)*. Moscow: Vysshaya shkola.
11. Latyshev, L. K., & Semenov, A. L. (2005). *Perevod: teoriya, praktika i metodika prepodavaniya*. Moscow: Akademiya.
12. Maslova, V. A. (2001). *Lingvokul'turologiya*. Moscow: Akademiya.
13. Polivanov, E. D. (1933). *Russkaya grammatika v sopostavlenii s uzbekskim yazykom*. Tashkent: Gosizdat UzSSR.
14. Saparova, K. (2006). *Fonostilistika russkogo i uzbekskogo yazykov*. Tashkent: Uzbekistan.

15. Safarov, O. (2004). Antik tarjimaviy tafakkurni o'rganish muammolari va ularning yechimlari. *Mumtoz so'z*, 3.
16. Jo'rayev, M. (2005). *Tarjimashunoslik asoslari*. Toshkent.
17. Rahimov, G'. (2016). *Tarjima nazariyasi va amaliyoti*. Toshkent.
18. Rakhimov, G. (2017). *Ingliz tili O'zbekistonda sotsiolingvistik va pragmatik ko'rsatkichlar*. Tashkent: Tamaddun.
19. Salomov, G'. (1983). Ilmiy hamkorlik va fan taraqqiyoti xizmatida. In *Tarjima nazariyasi asoslari* (p. 18). Toshkent: O'qituvchi.
20. *Slovar' lingvisticheskikh terminov* (5th ed.) (2010). Nazran. Retrieved from <http://gerebilo.ucoz.ru/>
21. *Tarjima san'ati*. (2023). Maqolalar to'plami. Yettinchi kitob. Toshkent.
22. Shveitser, A. D. (2012). *Teoriya perevoda: Status, problemy, aspekty* (3rd ed.). Moscow: Librokom.
23. Shchukin, A. N. (2006). *Lingvodidakticheskiy entsiklopedicheskiy slovar'*. Moscow: Astrel'.
24. Yusupov, U. (2007). *Teoreticheskie osnovy sopostavitel'noy lingvistiki*. Tashkent: Fan.
25. Etkind, E. G. (1965). Velikie frantsuzskie perevodchiki. In *Masterstvo perevoda* (p. 467). Moscow.
26. Dolet, E. (1540). *La manière de bien traduire d'une langue en autre*. Orléans.
27. Mérimée, P. *Le Coup de pistolet*. Traduit de Pouchkine. Retrieved from www.tititutorancea.fr
28. Vinay, J.-P., & Darbelnet, J. *Stylistique comparée du français et de l'anglais*. Paris.
29. Nida, E. A. *Toward a Science of Translating*. Leiden.
30. Catford, J. C. *A Linguistic Theory of Translation*. Oxford.
31. *Larousse. Dictionnaire de français*.
32. *Robert Micro. Dictionnaire de la langue française*.

REFERENCES

1. Karimov, I. (2008). *High spirituality is an invincible force*. Tashkent: Ma'naviyat, pp. 138–139.
2. Abdurazzaqov, M. (1972). *Essays on the comparative study of languages of different systems*. Tashkent: Nauka.
3. Buranov, D. (1983). *Comparative typology of the English and Turkic languages*. Moscow: Vysshaya Shkola.
4. Baranov, A. N. (2003). *Introduction to applied linguistics*. Moscow: Editorial URSS.
5. Gak, V. G. (1989). *Comparative typology of the French and Russian languages*. Moscow: Prosveshchenie.
6. Dzhusupov, M. (2013). *Specialized vocabulary and proverbs (linguo-contrastive and methodological aspects)*. Tashkent: MERIYUS.
7. Dzhusupov, M. (2012). Sociolinguistics, linguodidactics, and methodology: Interrelation and interdependence. *Russian Language Abroad*, 1, 22–28.
8. Dzhusupov, N. (2016). The theory of foregrounding in linguistic research: Origins, trends, and issues of interpretation. *RUDN Journal of Language Theory, Semiotics and Semantics*, 2, 41–50.
9. Cary, E. (1966). On translation and translators in France. In *The Art of Translation* (p. 449). Moscow.
10. Komissarov, V. N. (1990). *Translation theory (linguistic aspects)*. Moscow: Vysshaya Shkola.
11. Latyshev, L. K., & Semenov, A. L. (2005). *Translation: Theory, practice, and teaching methodology*. Moscow: Akademiya.
12. Maslova, V. A. (2001). *Linguoculturology*. Moscow: Akademiya.
13. Polivanov, E. D. (1933). *Russian grammar in comparison with the Uzbek language*.

- Tashkent: Gosizdat UzSSR.
14. Saparova, K. (2006). *Phonostylistics of the Russian and Uzbek languages*. Tashkent: Uzbekistan.
 15. Safarov, O. (2004). Problems of studying ancient translation thought and ways of their solution. *Mumtoz So'z*, 3.
 16. Jo'rayev, M. (2005). *Fundamentals of translation studies*. Tashkent.
 17. Rahimov, G. (2016). *Theory and practice of translation*. Tashkent.
 18. Rakhimov, G. (2017). *The English language in Uzbekistan: Sociolinguistic and pragmatic indicators*. Tashkent: Tamaddun.
 19. Salomov, G. (1983). Scientific cooperation in the service of scientific development. In *Foundations of Translation Theory* (p. 18). Tashkent: O'qituvchi.
 20. *Dictionary of linguistic terms* (5th ed.). (2010). Nazran. Retrieved from <http://gerebilo.ucoz.ru/>
 21. *The art of translation*. (2023). Collection of articles. Seventh volume. Tashkent.
 22. Shveitser, A. D. (2012). *Translation theory: Status, problems, and aspects* (3rd ed.). Moscow: Librokom.
 23. Shchukin, A. N. (2006). *Linguodidactic encyclopedic dictionary*. Moscow: Astrel.
 24. Yusupov, U. (2007). *Theoretical foundations of contrastive linguistics*. Tashkent: Fan.
 25. Etkind, E. G. (1965). Great French translators. In *The Art of Translation* (p. 467). Moscow.
 26. Dolet, E. (1540). *La manière de bien traduire d'une langue en autre*. Orléans.
 27. Mérimée, P. *The Shot* (translated from Pushkin). Retrieved from www.tititudorancea.fr
 28. Vinay, J.-P., & Darbelnet, J. *Comparative stylistics of French and English*. Paris.
 29. Nida, E. A. *Toward a science of translating*. Leiden.
 30. Catford, J. C. *A linguistic theory of translation*. Oxford.
 31. *Larousse Dictionary of French*.
 32. *Robert Micro: Dictionary of the French language*.